Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







QURILISH KORXONALARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR HISOBINING NAZARIY MASALALARI

Pardaboyeva Ruxsora Qodirboyevna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Makroiqtisodiyot” kafedrasi o’qituvchisi
ruxsorapardaboyeva0405@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilish korxonalarida daromad va xarajatlar buxgalteriya hisobini yuritishning dolzarb jihatlari, ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning yondashuvlari, ushbu korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishning boshqa tarmoq korxonalaridan ajralib turuvchi o‘ziga xos belgilari tadqiq etilgan bo‘lib, qurilish korxonalarida daromad va xarajatlar buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning dolzarb jihatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish faoliyati, qurilish korxonalari, daromadlar buxgalteriya hisobi, xarajatlar buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

Аннотация. В данной статье исследованы актуальные аспекты ведения бухгалтерского учета доходов и расходов на строительных предприятиях, подходы отечественных и зарубежных ученых-экономистов, проводивших научно-исследовательские работы в этом направлении, особенности ведения бухгалтерского учета на этих предприятиях, отличающие их от предприятий других отраслей, обоснованы актуальные аспекты организации и ведения бухгалтерского учета доходов и расходов на строительных предприятиях.

Ключевые слова: строительная деятельность, строительные предприятия, бухгалтерский учет доходов, бухгалтерский учет расходов, международные стандарты финансовой отчетности.

Abstract. This article examines the current aspects of accounting for income and expenses at construction enterprises, the approaches of domestic and foreign economists who have conducted research in this field, the distinctive features of accounting at these enterprises compared to other industry enterprises, and substantiates the current aspects of organizing and maintaining accounting for income and expenses at construction enterprises.

Keywords: construction activities, construction enterprises, income accounting, cost accounting, international financial reporting standards.

Kirish. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning yangi tizimini joriy etish, boshqaruv mexanizmining zamonaviy usullarini qo‘llash, shuningdek buxgalteriya hisobi sohasida xalqaro tajribalar asosida ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlash hamda korxonalarning daromad va foyda ko‘rsatkichlarini oshirishni taqozo etmoqda. Bu borada, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024 yil 27 dekabrda qabul qilingan “Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







muhitini ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”1gi Farmonida “Tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bozorda teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta’minlash, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, shuningdek yillik daromadi 1 trillion so‘mdan oshgan, 5 mingdan ortiq ish o‘rinlarini yaratgan hamda kamida 100 milliard so‘m soliq to‘layotgan yetakchi tadbirkorlik sub’yektlari ro‘yxatini shakllantirgan holda ular masalalari bilan manzilli ishlashni tashkil qilish hamda boshqa tadbirkorlik sub’yektlarini ushbu toifaga olib chiqish uchun shart-sharoitlar yaratish” kabi ustuvor vazifalar qo‘yilgan. Ushbu belgilangan vazifalardan ko‘rilgan asosiy maqsad mamlakat milliy iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi sub’yektlarning moliya-xo‘jalik faoliyatini barqarorlashtirish, ushbu yo‘lda ularga har tomonlama ko‘maklashish, raqobat muhitini barpo etish bo‘lib hisoblanadi. Bu esa, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning moliyaviy natijalariga, jumladan foyda ko‘rsatkichlarining oshib borishiga xizmat qiladi. Xususan, qurilish korxonalarida foyda ko‘rsatkichlarining oshib borishi esa, bevosita daromad va xarajatlarni to‘g‘ri boshqarishga, ular ustidan nazorat o‘rnatish orqali samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga, shuningdek daromad va xarajatlar hisobini xalqaro standartlar asosida yuritishga bog‘liqdir. Ushbu masalalar esa, qurilish korxonalarida buxgalteriya hisobi oldida daromad va xarajatlarni buxgalteriya hisobi ob’yekti sifatida to‘g‘ri tasniflash, xalqaro tajribalarga muvofiqlashtirish bo‘yicha dolzarb vazifalarni belgilab beradi.

Qurilish korxonalari faoliyati, qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari xarajatlarini boshqarish, “standart-kost” va “direkt-kosting” tizimini qo‘llashning zaruriyati, shuningdek qurilish tarmoqlarida daromadlar boshqaruv hisobi metodologiyasi, qurilish mahsulotlarini sotish jarayonlarini prognozlashtirish, qurilish korxonalarida ichki nazorat hisobini tashkil etish, qurilish mahsulotlarini saqlash hisobi va uni ichki nazorat tizimi tadqiq etilgan. Olimlarning fikricha “qurilish sanoati xalq xo‘jaligida o‘ziga xos o‘rinni egallab, mahsulotning ijtimoiy yo‘nalishi va ahamiyatini belgilab beradi. Qurilish sanoatining o‘ziga xos xususiyatlariga mamlakatdagi iqtisodiy o‘zgarishlardan qat’iy nazar barqaror, yuqori ishlab chiqarish sur’atlari va foyda o‘sishi kiradi”.

Ukrainalik olima O.Prokopova tomonidan hisobotlarning shaffofligi, ishonchliligi hamda bugungi kundagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda qurilish korxonalari buxgalteriya hisobi va hisobotini takomillashtirishning nazariy hamda uslubiy prinsiplari asoslangan, ushbu tarmoq korxonalarida hisobotlarning axborot ta’minotini yanada oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va takliflar berilgan.

Qurilish korxonalarida boshqaruv hisobining nazariy va metodologik asoslari, boshqaruv hisobi tizimini baholash, qurilish korxonalari tovar-moddiy zaxiralari hisobini takomillashtirish kabi masalalar ilmiy tomondan tadqiq etilgan bo‘lib, ushbu tadqiqot natijalari asosida qurilish tarmoqlarida boshqaruv hisobidagi axborotlarni ochib berishga oid normativ-huquqiy hujjatlar bazasi ishlab chiqilgan, qurilish sohasida avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobini tashkil etish orqali byudjetlashtirish jarayonlariga oid ilmiy takliflar berilgan, shuningdek korxonalarda

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлар учун тенг шароитлар ва адолатли рақобат муҳитини таъминлаш бўйича навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2024 йил 27 декарь. ПФ-229.

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







ichki nazorat tizimini optimallashtirish hamda tovar-moddiy zaxiralarini realizatsiya qilishning samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlangan hamda uni oshirishning yo‘llari asoslangan.

Qurilish korxonalarida buxgalteriya hisobi hamda tahlilni tashkil etish, ularning normativ-huquqiy bazasini tartibga solish, qurilish korxonasining moliyaviy hisobotlarida foyda solig‘iga oid hisob-kitoblarni ochiqlash, ushbu korxonalarda dastlabki audit o‘tkazish va uning metodologiyasi, qurilish tarmog‘ida daromad va xarajatlarni audit o‘tkazish jarayonlari metodikasiga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan2.

Rivojlangan ko’pgina mamlakatlar bugungi kunda qurilish sanoati eng rivojlangan, salohiyat jadallashgan davlatlardan hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda tadqiqot ishlarini olib borayotgan bir qator olimlar qurilish korxonalarida ekologik buxgalteriya hisobini yuritishning bugungi globallashuv sharoitidagi dolzarb vazifalar va atrof-muhitni saqlash bilan bog‘liq xarajatlar buxgalteriya hisobining amaliy jihatlari, ekologik xarajatlarni nazorat qilish masalalarini tadqiq etganlar.

An’anaviy va qurilish korxonalarida buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni ko‘rsatib beradi. Bunda u ta’minot zanjiri bo‘yicha xarajatlarni tashkil etish, farmasevtika korxonalarida amalga oshiriladigan tadqiqot ishlari va ular bo‘yicha xarajatlar hisobi bo‘yicha farqli tomonlarini ta’kidlaydi.

Boshqa manbalarda ham qurilish korxonalari buxgalteriya hisobini yuritishning o‘ziga xos farqli jihatlari mavjudligi qayd etilgan: “Qurilish korxonalarida buxgalteriya hisobining ilg‘or amaliyotlari sanoatning o‘ziga xos moliyaviy qiyinchiliklarini va tartibga solish talablarini boshqarish uchun juda muhimdir. Har tomonlama ilmiy-tadqiqot xarajatlarini kuzatish, daromadlarni aniqlash, inventarizatsiyani samarali boshqarish va kuchli ichki nazoratga ega bo‘lgan qurilish kompaniyalari moliyaviy yaxlitlikni va uzoq muddatli muvaffaqiyatni saqlab qolishlari mumkin. Texnologiyadan foydalanish va sohadagi o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish buxgalteriya hisobini yanada mustahkamlaydi va kompaniyalarga qurilish sanoatida ishonch bilan borishga yordam beradi”.

Shuningdek, mamlakatimiz olimlari tomonidan ham qurilish tarmoqlarida buxgalteriya hisobini tashkil etilishi va yuritilishiga oid qator o‘quv-ilmiy adabiyotlar ham mavjud. Iqtisodchi olimlar tomonidan qurilish faoliyatida buxgalteriya hisobining asoslari fani bo‘yicha bajarilgan adabiyotda dorixonalar misolida buxgalteriya hisobini tashkil etish, daromad va xarajatlar buxgalteriya hisobining xususiyatlari, qurilishlarda buxgalteriya balansini tuzishning dolzarb jihatlariga e’tibor qaratilgan. Mazkur o‘quv adabiyoti dorixonalarda buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishda muhim ahamiyat kasb etsada, biroq qurilish tarmoqlarining boshqa asosiy bo‘g‘inlari hisoblanadigan qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalari faoliyatiga e’tibor yetarli darajada qaratilmagan.

Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqot ishlari va ularda erishilgan natijalar qurilish korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu xorijiy va mamlakat olimlari qurilish korxonalarida hisob va hisobotni tashkil etishning ilmiy-amaliy asoslarini ochib bergan bo‘lsalarda, biroq ular tomonidan qurilish korxonalarida daromad va xarajatlar hisobining nazariy va

.

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







amaliy jihatlariga, ushbu tarmoq korxonalarida moliyaviy va boshqaruv ahamiyatga ega bo‘lgan hisobotlarni shakllantirishga katta e’tibor qaratishmagan. Bugungi kunda qurilish tarmog‘ida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning ta’minot, ishlab chiqarish, mahsulotlarni realizatsiya qilish jarayonlari, umuman olganda barcha operatsion, moliyaviy va boshqa faoliyat turlarini tadqiq etgan holda daromad va xarajatlari buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, ushbu mavzuga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi PF-5392-son Farmoni “Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. A. A. Saidov - “Qurilish iqtisodiyoti” 2024-yil Sarvarprint 525 bet ISBN 978-9910-7131-6-3
3. K.B.Urazov “Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari” (2007)